

## FANTASIK ASARLAR :TASAVVUR VA ORZULAR OLAMIDA GARRI POTTER FENOMENI .

Rasulova Shaxlo

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari ,tillari va madaniyati instituti filologiya va tillarni o'qitish :o'zbek tili yo'nalishi talabasi*

**Anotatsiya:** *Fantastik asarlar -bu inson tasavvurining cheksiz imkoniyatlarini ochib beruvchi ,aks ettiruvchi adabiy asarlardir. Bunday asarlarda sehr -jodu ,afsonaviy mavjudotlar ,o'zga sayyoralar tasvirlanganligi , inson tasavvuriga sig'maydigan voqealar hikoya qilinishi tabiiy holdir.Fantastika o'quvchini ziddiyatga boy bo'lgan hayot chegarasidan olib chiqib ,o'ziga xos ,ikki parallel olam kurash olib borayotgan mo'jizalar diyoriga sayohat qildiradi .Ushbu maqolada fantastika janrining eng shoh asarlari bo'lgan "Garri Potterni sarguzashtlari " tahlili haqida so'z boradi .*

### KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda yaratilgan asarlarning ma'lum qismini fantaziya janrida yaratilgan asarlar egallaydi .Fantastik adabiyotqadim davrlarda shakllangan bo'lib ,uning ildizlari mifologiya ,xalq afsonalariga borib taqaladi .Qadimgi xalqlarning qahramonlik dostonlari ,sehrli mavjudotlar haqidagi ,rivoyatlar,qadimgi insonlarning diniy e'tiqodlari haqidagi rivoyatlar fantastik asarlarning shakllanishiga asaos bo'lgan .XIX - XX asarlarda esa fantastika janr sifatida rivojlanib ,zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi .XX asrda esa bu janr jadal rivojlandi .Natijada ikki parallel dunyolar ,sehrli olamlar va epik qahramonlar syujet qilib olingan asarlar yaratildi .

Asosiy qism Fantaziya janrida yaratilib ,bugungi kundagi eng ko'p kitobxonlariga ega bo'lgan asarlardan biri britaniyalik yozuvchi Joanna Ketling Rouling qalamiga mansub 7 qismdan iborat "Garri Potter " asarlar to'plamidir .O'z adibasiga millionerlar safiga olib chiqqan asar 1997 -2007- yillar mobaynida yozilgan .Ma'lumotlarga qaraganda ,Joanna Ketling Rouling asarning ilk qismlarini yaratayotgandayoq onasi og'iz kasallik tufayli vafot etgan ekan .Balki yozuvchi og'ir kunlarni boshidan o'tkazgani uchun ham qahramoni Garri Potterni yolg'izlik va yetimlikda o'tkazgan hayoti shu darajada ta'sirli va tabiiy chiqqandir .Asar barcha fantastik asarlar singari mifologiya bilan yo'g'rilgan .Biroq undagi g'oyaning asosini do'stlik,mehr -muhabbat ,ezgulikning doimo yovuzlik ustidan g'alaba qilishi tashkil qiladi .Ayniqsa ,asarda Ron ,Germiona va Garrining do'stligiga alohida urg'u beriladi .Ron Uizle Garri Potterni eng yaqin va hayotida alohida o'ringa ega bo'lgan insonlardan bir.Odatda bosh qahramonning jasoratlari haqida gap ketadigan film yoki kitoblarda u bilan bir safda bo'lgan sodda ,biroz dovdur va ko'rimsizroq obraz sherik qilib



olinadi .Adiba Ronni ham xuddi shunday sodda ,har doim kulgili va noqulay vaziyatlarga tushib yuradigan ochiqko'ngil obraz sifatida tasvirlaydi .U doimo Garrining sarguzashtlariga sherik bo'ladi ,uni qo'llab -quvvatlaydi .U garchi aslzoda sehrigar bo'lsa-da ,do'st tanlashda ularning mansabi yoki qanday oiladan ekanligiga e'tibor bermaydi .Uning uchun asosiysi chin do'stlikdir.To'g'ri Ron Garridek og'ir yo'qotishlarga duch kelmagan.Lekin oilasining nochorligi ,akalarining ortida qolib ketishi ,o'ziga bo'lgan ishonchsizligi uni doimo qiynab kelgan .Ba'zi hollarda Garri bilan orasidagi tushunmovchiliklar ,hasadi ahvolni yanada taranglashtirgan .Shunday bo'lsa-da, u doimo aybini tushunib yetgan va asar so'ngida qalbi toza ,jasur insonlar qo'lga kirita oladigan Griffindor qilichini topib ,medalyonni yo'q qiladi .

"Oltin Uchlik " ning qahramonlaridan yana biri Germiona Grenjerdir .Oddiy insonlar oilasida tug'ilib -o'sgan bu qizaloq asar boshida o'zini juda mag'rur va bilag'on tutadi . Bunday haraktlar tufayli nafaqat kitobxonlarda ,balki Ron va Garrida ham yomon taassurot qoldiradi .Lekin adibaning ko'pcholi qahramonlari ko'ringanidek tasvirlanmaydi .Aksincha ,qahramonlar bilan yaqindan tanishib olgan kitobxon ularning shaxsiyatidagi o'ziga xos xususiyatlarni kashf etadi :yomon qahramonlar yaxshi ,yaxshi qahramonlar esa aslida yomon ekanligi oshkor bo'ladi .Germiona ham shunday obrazdir .Asar boshida injiq ,mijg'ov sifatida tasvirlangan qizaloqda troll hamlasidanomon qolgach ,Garri va Ronga nisbatan do'stlik hurmat tuyg'usi uyg'onadi va shu tariqa asarning bosh qahramonlaridan biriga aylanadi .Germionaning o'tkir zehni ,aqli va jasurligi do'stlarni ko'pgina qiyinchiliklardan omon chiqiahiga sabab bo'ladi .Ayniqsa , bu holatga asarning 7-qismida ruxdon izlab yo'lga chiqqan do'stlarning sarguzashtlarida juda ko'p duch kelish mumkin.Boshqa odamlar qiyofasida vazirlikda qahramonlarimizning vazirlik odamlari va vazir Pius Tekness ,Gringosttdagi goblinlar qo'lidan ajdar ustida qochib qolishi ,o'limdan miriquvchilar changalidan omon qolishi ,Geemionaning sharofatidir.Nafaqat qizaloqbu jasoratlari bilan ham tom ma'noda Qora Lordni yengishta asosiy sababchilaridandir .

Yana bir e'tiborli jihati Germiona va Garrining munosabatlaridir .Ularning aloqalari muhabbatdan uzoq ,lekin do'stlikdan yaqinroqdir .Ron va Germiona asar oxirida bir-biriga ko'ngil qo'yishadi ,lekin Garri va Germioan bir -birini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlaydigan ,opa -ukalardek g'amxo'rlik qiladigan so'stlar sifatida tasvirlanadi .Hattoki ,ruxdonlani topishga ishonchi so'na boshlagan Ron ham Garrini tashlab ketgan vaqtda faqatgina Germionaning unga ishonch bildirishi sadoqatli do'stlikdan darakdir .

Yuqorida asarning ayrim qahramonlari ko'ringanidek emasligini ta'kidlab o'tildi ,Shunday qahramonlardan biri Garrining cho'qintirgan otasi Sirius Blakdir .13 yil davomida Azkabanda mahbuslikda yashagan Blak asar boshida do'stlarini Voldemortga sotib bergan xoin , Garrini o'ldirmoqchi bo'lgan ashaddiy qotil sifatida tasvirlangan .Biroq asar bilan yaqindan tanishish davomida kitobxonning qahramonimiz haqida fikr o'zgaradi .U aslida





tuhmat qurboni bo'lganligi Garri va ota-onasining sadoqatli kishisi ekanligiga guvoh bo'ladi .Asarning keyingi qismlarida Sirius Qaqnus orderining faoliyatini qayta tiklab ,safdosklarini atrofiga yig'adi va avror sifatida Yovuz Lordga qarshi kurashishni boshlaydi. Asirning aynan 5-qismida Vielga tushib ketish orqali o'lim topadi .Sirius Blak shunchaki obraz emas ,balki u Garridek oilasiz o'sgan bola uchun ota ,yaqin do'st va bir bir paytlar oilasi bo'lganligidan darak beruvchi insondir .Uning cho'qintirgan o'g'li bilan o'tgan hayoti qisqa bo'lsa-da , Garriga haqiqiy baxt va oila iliqligini ulasha oldi.

Yana bir asarda burilish nuqtasi yasay olgan obraz bu professor Severius Snapdir .Garrini doimiy kamsitib ,jazolab kelgan bu qahramon o'quvchida asar boshidayoq nafrat uyg'otadi va hattoki, Voldemort tarafdorlari safiga qo'shilishi bu nafratni yanada kuchaytiradi .Asarning so'nggi qismlarini o'qish jarayonidau aslida yovuz emas, hattoki o'limdan miriquvchi ham emas,balki butun umr Garrini g'oyibdan himoya qilganligi ,Voldemortning qulashida yordam berganligi oydinlashadi.Yovuz Lord hokimiyatni birinchi egallaganida unga ishlab qattiqxato qiladi va bu xatosi tufayli hayotidagi yagona muhabbati bo'lgan Lily va Jamesning o'limiga sabab bo'ladi . Lily oldida qilgan gunohini yuvish uchun ham Garrini himoya qilishga va Damldorgayordam berishga kirishadi .Umuman ,olganda ,Snap o'z hissiyotlarini kimgadir ko'rsatishga urinmaganligi ,Lilyni so'nggi nafasiga qadar sevganligi uchun ham kitobxon qalbidan chuqur o'rin egallagan .Ba'zi asarlarda shunday qahramonlar bo'ladiki ,asarda bosh qahramon bo'lishmasa-da, asar syujetida qahramonlar harakatida muhim o'rin tutadi ,ularning vojeali taqdiri kitobxonlarni qayg'uga soladi .Sirius Blak va Severius Snep xuddi shunday qahramonlardir .

Xulosa qilib aytganda ,fantastik asarlar insonni tasavvur va orzular olamiga yetaklaydi ,uning fikrlash doirasini kengaytiradi .Ayniqsa ,Garri Potter asarlari bu janrning yorqin namunasi bo'lib ,nafaqat sehrlil voqealar ,balki do'stlik jasorat ,yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash kabi muhim g'oyalarni ham yoritadi .Asar muallifi J.K Rouling yaratgan sehrlil dunyo o'quvchilarni o'ziga rom etib, ularni yaxshilikka ,qat'iyat va umid bilan yashashga undaydi.

